



O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2014-yil 10-dekabrda 0055-raqam bilan qayta ro'yxatga olingan.

2021-yil. 11-soni.

1991-yildan chiqsa boshlagan

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Языка и литературы
LANGUAGE AND LITERATURE

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Bosh muharrir

Bahodir JOVLIYEV

Tahrir hay'ati:

Dilshod KENJAYEV
Nizomiddin MAHMUDOV
Nargiza RAHMONQULOVA
Yorqinjon ODILOV
Nasirullo MIRKURBANOVA
Jabbor ESHONQULOV
Valijon QODIROV
Baxtiyor DANIYAROV
Abdurahim NOSIROV
Tolib ENAZAROV
To'lqin SAYDALIYEV
Ravshan JOMONOVA
Zulkumor MIRZAYEVA
Qozqoboy YO'LDSHEV
Nilufar NAMOZOVA
Lutfullo JO'RAYEV
(bosh muharrir o'rinosari)

Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV
Gulnoza VALIYEVA

Nashr uchun mas'ullar:

Nilufar NAMOZOVA
Nigora URALOVA
Emma TOROSYAN

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri Matbuotchilar ko'chasi
32-uy.
Telefon: (98) 121-74-16,
(71) 233-03-10,
(71) 233-03-45,
(71) 233-03-67.
e-mail: til_adabiyot@umail.uz
veb-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Jurnaldan ko'chirib bosilgan maqolalar "Til va adabiyyot ta'limi" dan olindi, deb izohlanishi shart.

Jurnalda nashri etilgan maqolalarda mualliflarning tahririyat nuqtayi nazarga muvofiq kelmaydigan fikr-muholazalari bosilishi mumkin.

Tahririyatga kelgan qo'yozmalar taqriz qilinmaydi va muallifiga qaytarilmaydi.

Bosmaxonaga. 2021.25.11. da topshirildi. Ofse usulida chop etildi. Qog'oz bichimi 60x841/8. Sharfiy bosma tabog'i 6.0. «Times» garniturasi. 10, 11 kegl. «EKO TEXTILE PRODUKT» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Manzil: Toshkent sh. Mirobod tum. Matbuotchilar ko'chasi 32-uy. Buyurtma — Adadi 3560 nusxa. Bahosi kelishilgan narxda.

TIL VA ADABIYOT
TA'LIMI
jurnali

<p>BOSH MUHARRIR</p> <p>DOLZARB MAVZU</p> <p>DARS – MUQADDAS</p> <p>TAHLIL</p> <p>TARJIMASHUNOSLIK</p> <p>MUNDARIJA</p> <p>YORQIN ODILOV. Istiqol yillari o'zbek lug'atchiligiga chiziglar 3</p> <p>ILBOM NURMUROTOV. Muallif punktuatsiyasi va maktab darsliklarda tinish belgilaringan o'qitilishi muammolari 6</p> <p>RUXIYA SHAYMANOVA. Harakat va holat fe'llari 9</p> <p>RO'ZMAT ISMOHOV. Qo'shma, juft va takroriy sifatlarning yasalishi va imlosi 11</p> <p>TADQIQOTLAR</p> <p>SEVARA YOQUBOVA. Lingvistik eksperimentida noadabiy leksik unsur tushunchasi va uning shaxsiy yo'zishmlarida voqe'lanish omillari 13</p> <p>SAQDAT QAMBAROVA. Adabiyotdan blok darslar qanday tashkil etildi? 14</p> <p>MOHIGUL FOZILOVA. Adabiy – nazarly kompetensiyalar xususida 16</p> <p>QURDOSH QAHRAMONOV. Umarali Normatovning munaqqidlik mahorati 17</p> <p>DILOROM TOSHPULATOVA. Author's outlook on the factors of poetic expression 19</p> <p>ELMUROD NASRULLAYEV, HALIMA SHUKUROVA. Navoiyning tasavvuf ta'limotiga munosabati 21</p> <p>MUNAVVARA XIDIROVA. Badiy so'z Tog'ay Murod talqinida 22</p> <p>ABDUMUROD NAMOZOV. Xorijiy tillarni o'rganish va o'rnatishda che'l et jahribasi hamda fanlararo bog'lanish samarasi 23</p> <p>TRAJIMASHUNOSLIK</p> <p>MUQADDAS OQMAMATOVA. Cho'lpon she'riarida milliy-madaniy frazeologizm 24</p> <p>LG'OR PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALAR</p> <p>SAQDAT QAMBAROVA. Adabiyotdan blok darslar qanday tashkil etildi? 26</p> <p>SHAKHLO BOTIROVA. Innovative cluster of pedagogical education as a new priority 29</p> <p>FERUZA KATTAEVA. The concept of sociocultural competence and its formation 30</p> <p>KICHIK TADQIQOTLAR</p> <p>DILAFRUZ SARIMSQOVA. Innovatsion pedagogik texnologiyalar integratsiyasi: Keys stadi metodi 41</p> <p>ALISHER MAHMUDOV. G'arb dramaturgiyasida sharqona sujet va g'oyalar transformatsiyasi 43</p> <p>LOLA KARSHIEVA, MUBORAK KATTABOEVA. Analysis of methods, approaches and techniques in teaching idioms to pre-service teachers 44</p> <p>SAYDAKHON MAVLANOVA. Literature and literature teaching methodology: harmony and difference 47</p> <p>METODIKA. O'PXTI</p> <p>MUKARRAM BERDIEVA. Особенности числовитых при изучении лексической темы «Семья – источник нравственных отношений» 49</p> <p>АМИНА ФАТТАХОВА. Повесть А.А.Ганиевой «Салам тебе, Далат!» 51</p> <p>ISPOLZUJTE ETI MATERIALY</p> <p>AZIZA BEIDLIOVA. Развитие аналитико-синтетических умений у учащихся при изучении несвободных словосочетаний в пословицах 53</p> <p>языкознание</p> <p>FERUZA KODIROVA. Активная цветовая лексика в русском и узбекском языках 56</p> <p>NODIRA ISZBAEVA. Билингвизм как многоаспектное понятие языка 57</p> <p>СОПОСТАВИТЕЛЬНОЕ ЯЗЫКОЗНАНИЕ</p> <p>AZIZA MUMINNOVA. Средства выражения побудительности в разносистемных языках 59</p> <p>MARJAKAN KAMBAROVA. Понятия человек-труд, труд-человек в пословицах английского, русского, узбекского и казахского языков 60</p> <p>народы, языки, культура</p> <p>ADIBA DAVLATOVA. Роль языка в развитии поэтического мышления 62</p> <p>ПРОБЛЕМЫ. ПОИСКИ. РЕШЕНИЯ</p> <p>FERUZA SAIDOVA. Развитие финансового образования и повышение финансовой грамотности молодого поколения 63</p> <p>CHAROS ABDULLAEVA. Рекламный дискурс в социально-культурном контексте 65</p> <p>ЛИТЕРАТУРОВДЕНИЕ</p> <p>BARNO KADIROVA. Астрокосмонимы в газелях Алишера Навои 67</p> <p>ШАХИСТА TAXHIRJANOVA. Система референций эпического текста и эпическая традиция 68</p> <p>НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ</p> <p>AZIMKHON RAXMONOV. Задачи, особенности, отличительные черты и классификация кейс-метода 70</p> <p>ALIBINA RAXMONOVA. Влияние коранических реалий на произведения И.А.Бунина 73</p> <p>ZELLYNA ALIEVA, SAQDAT INOYTOVA. Знаки препинания в графической организации парцеллированных конструкций в стихотворении М.Цветаевой «Мне нравится, что вы больны не мной...» 76</p> <p>RUSANA SINJAPANOVA. Производное слово в свете теории концептуальной интеграции 78</p>
--

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oly attestatsiya komissiyasining
Filologiya va Pedagogika fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy
natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.

Tahlil

b) tasviriy matn: Quyosh chiqib turgan bo'lsa ham, nuri ojiz edi. Yelkamizni isitmas, lekin yoqimli edi. O'rmon ichidan ketgan yo'ldan boryapmiz. Bu – aralash o'rmon, ya'ni turli-tuman mevali-mevasiz daraxtлari ko'п bo'lgan o'rmon. Archa ham serob (Sh.Xolmirzayev);

d) muhokama matn: Olimlar kompyuterni inson misidan andaza olib yaratgan. O'yaydi. Hisob-kitob qiladi. Muammoni yechadi. Xulosa chiqaradi. Eslab qoladi... Faqat kompyuterning insondan bitta ustunligi bor: keraksiz axborotni xoqlagan paytda xotirasidan o'chirib tashlashi mumkin... Odam esa yomon xotiralarni miyasidan o'chirib tashlolmay aziyat chekadi (O'.Hoshimov).

Yozuv madaniyatini takomillashtirish va savodxonlikni ta'minlashda **tinish belgilar** alohida ahamiyatga ega. Tinish belgilar tilning sintaktik qurilishi bilan uzvi bog'liq bo'lib, yozma nutqni to'g'ri, ifodalni, ariq bayon qilishda, uning uslubiy ravonligi, tez tushunilishini ta'mintashda benihoya zaruriy vosita hisoblanadi. **Nuqta** o'zbek tilida, odatda, his-hajayonsiz aytigan darak, buyruq gaplar, atov gaplardan so'ng qo'yildi. **Vergul** uyushiq bo'laklar, undalmalar, kirim so'z va birikmalar, ajratilgan bo'laklar, tasdiq, ta'kid, inkor va shu kabi ma'nolarni bildiruvchi ha, yo'q, rahmat, xo'sh, qani, xayr, ofarin, salom kabi so'zlardan keyin qo'yildi. Qo'shma gaplarning tashkil qilgan sodda gaplar orasida, ko'chirma gap bilan muallif gapini ajratishda ham vergul qo'llanadi. **So'roq belgisi** so'roq gaplarning oxiriga qo'yildi. Shuningdek, gap yoki matn ichidagi birorta so'z yoki jumla mujmal, noaniq, tushunarsiz bo'lsa, undan so'ng qavs ichiga so'roq belgisi qo'yilishi mumkin. **Undov belgisi** kuchli his-hajayon bilan aytigan gaplardan so'ng qo'yildi. Buyurish, yalinish, istak, xohish va shu kabi ma'nolarni ifodalovchi gaplarning oxirida ham ishlataladi. Shuningdek, so'z boshda kelib, kuchli his-hajayon bilan aytigan undalmalar, ha, yo'q, xo'p, uzr, mayli, xayr, salom kabi so'z-gaplar hayajon bilan aytiganda ham undov belgisidan foydalaniлади. Aytilishi lozim bo'lgan fikr o'ta kuchli his-hajayon bilan aytilsa, ketma-ket uchtagacha undov belgisi qo'yilishi mumkin.

Shu tariqa o'quvchi matnlarni o'qib, mazmunini uqishda boshqa tinish belgilarning ham ishlatalish vazifasi haqida ma'lumotga ega bo'lib boradi.

Matn g'oyasini aniqlashda quyidagicha mashqlardan foydalanish mumkin:

Dunyo okeani tabiiy boyliklarning xazinasi hisoblanadi. Bu boyliklar biologik, kimyoviy, ma'danli va yoqilg'i-energetika resurslaridan iborat. Hozir biologik resurslarning 2% idangina foydalanimloqda. (6-sinf geografiya)

Matnni qismalgara ajratib chiqamiz:

1. Dunyo okeani tabiiy boyliklarning xazinasi hisoblanadi.
2. Biologik, kimyoviy, ma'danli va yoqilg'i-energetika resurslaridan iborat.
3. Hozir biologik resurslarning 2% dangina foydalanimloqda.

Topshiriq:

A) Okeandagi tabiiy boyliklar quruqlikdagiga nisbatan ko'pligi aytimoqda.

B) Hozirda biologik resurslarning hammasi foydalanishga yaroqsiz bo'lgani uchun atigi 2% gina ishlatalimoqda.

D) Dunyo okeanining foydalanilaysotgan resurslaridan ko'ra xazirada turgan resurslari nihoyatda ko'p.

Javoblarini tahlil qilamiz va to'g'ri javobni qabul qilamiz:

A variantida matnda begona so'z bor: quruqlik. Suv va quruqliknинг tabiiy boyliklari taqqoslanmagan. Bu dallanmanma qo'shma gaplarning oxiriga qo'yildi. Shuningdek, gap yoki matn ichidagi birorta so'z yoki jumla mujmal, noaniq, tushunarsiz bo'lsa, undan so'ng qavs ichiga so'roq belgisi qo'yilishi mumkin. **Undov belgisi** kuchli his-hajayon bilan aytigan gaplardan so'ng qo'yildi. Buyurish, yalinish, istak, xohish va shu kabi ma'nolarni ifodalovchi gaplarning oxirida ham ishlataladi. Shuningdek, so'z boshda kelib, kuchli his-hajayon bilan aytigan undalmalar, ha, yo'q, xo'p, uzr, mayli, xayr, salom kabi so'z-gaplar hayajon bilan aytiganda ham undov belgisidan foydalaniлади. Aytilishi lozim bo'lgan fikr o'ta kuchli his-hajayon bilan aytilsa, ketma-ket uchtagacha undov belgisi qo'yilishi mumkin.

B variantida ham noto'g'ri ma'lumot aytimoqda. Chunki matnda resurslarning yaroqsizligi haqida so'z bormagan. Aksincha, uning ko'pligi xususida ma'lumot berilgan. **Javob qabul qilinmaydi.**

D variantida umumiy xulosa berilyapti, ya'ni okeandagi tabiiy boyliklarning turi hamda mijordi jihatidagi zaxiraga egaligi aytimoqda. Birgina misol qilib biologik resurslarning bugungi kundagi foydalishan foizi keltirib o'tilgan. **Javob qabul qilinmaydi.**

Xullas, o'qib tushunish nutqiy ko'nikmasining rivoji naqafat ta'lim tizimida, balki boshqa sohalarning taraqqiyotida ham muhim ahamiyat kasbo etadi. Bu jarayon shaxsnинг matn (ma'lumot)ni tanlash, tushunish, talqin qilish, mulohaza yuritish, foydalish, munosabat bildirish, tahlii qilish, qiyoslash, ijodiy, mantiqiy, tanqidiy fikrlash kabi zaruriy kompetensiyalargi ega bo'lishini ta'minlaydi. Zero, shaxs jamiyatda real hayoti va ziatlarga bardosh bera oladigan kadr bo'lishi davr talabidir.

Foydalanimgan adabiyotlar

1. N.Mahmudov, A.Sobirov, Sh.Sattorov, Sh.Toshmirzayeva, D.Mannopova. 5-sinf. Ona tili darsligi. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020.
2. N.Mahmudov, A.Nurmonov, A.Sobirov, D.Nabiyeva. 6-sinf. Ona tili darsligi. – Toshkent: Tasvir, 2017.
3. N.Mahmudov, A.Nurmonov, A.Sobirov. 9-sinf. Ona tili darsligi. – Toshkent: Tasvir, 2019.
4. B.Mengliyev, Sh.Toshmirzayeva, S.Atoyeva, S.Majidova. 10-sinf. Ona tili darsligi. 2-qism. – Toshkent: O'qituvchi, 2020.
5. B.Mengliyev, Sh.Toshmirzayeva, S.Atoyeva, S.Majidova. 11-sinf. Ona tili darsligi. 2-qism. – Toshkent: O'qituvchi, 2020.

Gulruk XUDOYOROVA,
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti
universiteti o'qituvchisi

ABDULLA ORIPOV SHE'RIYATIDA RANG VA OHANG UYG'UNLIGI

Abdulla Oriпов ijodida tabiat va undagi ranglar lirik kechinmalar bayoni uchun manba vazifasini o'taydi. Xorida yaratilgan she'rlarida peyzaj shoir ruhiyatini, kechinmalarini badiyl suvratlantirish vositasidir. Rus olimi V.Y.Xalizevning "Inson ruhiy holatlari lirkada turli xil shakkarda: to'g'ridan to'g'ri va ochiq, samimi yizhor orgali, tazarru ruhidagi monologlar hamda tashqi muhit (tavsiify lirika, aksar hollarda peyzaj) tasviri

vositasida yoki muayyan vogelik mohiyatining ifodasi shaklida aks ettilraladi" tarzidagi nazariy xulosasi Abdulla Oriпов she'riyatda lirk kechinma va rang, lirk kechinma va ohang sintezi masalasini o'rganishida muhim o'rinni tutadi.

Abdulla Oriпов ranglar vositasida o'z tuyg'ularini bayon etar ekan, ranglar shoir uchun hayat manbayi, tirkilik vositasini o'zida mujassam etguvchi sehrli ohang ekanini ko'sata-

di. Jumladan, shoirning "Yashil novda" she'rida yashil novda yangi hayot timsoli sifatida tilga olinadi. Aslida, yashil rang azaldan yasharish, tiriklik timsoli. Shoir ayni an'anaviy tim-soldan yangi bir kashfiyat yaratadi:

*Rasul qabristondan borarkan o'tib,
Shafqat va inoyat hissin tuydilar.
Bir qabr goshida tiloval etib,
So'ng yashil novdani qadab qo'ydilar.*

Qabr boshiga yashil novdani qadashda chuqur ramziylik bor. Qabriston – inson hayotining eng so'nggi manzili. Shu bilan insonning bu yorug' dunyodagi safari yakunlandi. Rasulullohning qabristonga yashil novda qadashlari nimani anglatdi. Ha, shoir bu bilan hayot davom etishini ta'kidlamoqda. Boisi, hayot cheksiz qudratga ega. Kimdir ketishi bilan dunyo karvoni to'xtab qolmaydi. U yana o'z yo'lida davom etaveradi. Unda insonning bu o'tkinchi dunyo uchun yonib-kuymog'ida ne ma'nii bor? Shu kabi tuyg'ular shoir qalbidan o'tgan bo'lishi tabiiy. Zero, Alloh buyuk, uning qudrati cheksiz. Agar U istasa, o'zida hayotning zarrasini saqlab turgan yashil bir novdadani yana qayta borliqni yaratada oladi. Shoir o'sha yashil novdada hayot nishonasi borligini aytmoqchi. Axir u – yashil! Yashillik esa hayot ramzidir. Shoir birgina yashil novda vositasida butun bir hayot qonuniyatini – Allohning qudrati cheksizligini, hayot kimmingdir tark etishi bilan to'xtab qolmasligini, dunyoning o'tkinchiligini ifodalab beradi. Yashil rangni hayot timsolida anglash an'anaviy holat, ammo unga cheksiz ma'no va mazmun yuklay olish esa iste'doddir. "Darhaqiqat, ijodkor tomonidan qo'llanilgan poetik obrazlar tabiatdan olinsa va ularga singdirilgan mazmun chuqur ma'holi bo'lsa, inson ruhiyatni bilan tabiatdagi o'xshashlik bir-birini qo'llaydi va boyitadi"².

Shoir o'z kechinmalarini bayon etishda ranglarning naqaqtan an'anaviy mazmunidan foydalananadi, yana ba'zi bir she'rlerda ranglarga tamoman yangicha ma'no yuklaydi. Jumladan, "moviy bo'shlilqar", "novvotrang sukut" kabi topilmalar shunday xulosa qilishga asos beradi. Abdulla Oripov "Jeneva" she'rida bu kabi ifodalarni qo'llash orqali ayni o'sha kezdagi lirik kechinmalarini san'atkorona ifodalaydi: *Tashvishli damlarni yurak unutdi, Moviy bo'shlilqlarga singdi unlarim.*

Shoir "moviy bo'shlilqlar" birkmasi orqali cheksizlikni ifodalaydi. Boisi, osmon moviy rangda va u cheksiz. Shoir moviy bo'shlilqlarga yurak rozlari bilan singib boradi. Cheksizlik bu – erkinlik. Demak, shoir ayni o'sha lahzada hayot tashvishlaridan, turli o'y-xayollardan ozod. "Tashvishi damlarni yurak unutdi" deyishi sababi shunda. Lirik kechinma tasviri g'oyatda go'zal va betakror. Chunki tabiat va undagi ranglar shoir uchun cheksiz badiiy kashfiyotlar manbayidir: *Cho'qqilar ortidan o'malar bulut, Birdan tinib qolar o'tloqdagi yo'r. Shivalab o'tadi yomg'ir, hoynahoy, Borliqqa cho'kadi novvotrang sukut.*

Inson kechinmalarini cheksiz va turfa xil. "Novvotrang suku" ifodasida ham ayni shu cheksizlik va turfa xillik mavjud. Yomg'ir yog'gandan keyin borliqqa novvotrang sukut cho'kishiga turlicha izohlar topish mumkin:

– yomg'ir yog'gandan so'ng tabiatda yuzaga keluvchi sokinlik va go'zallik ko'ngilga taskin berishi;

inson to'yib yig'laganidan so'ng (yomg'ir yog'ishi) uning ruhiyatni poklanib, (novvotrning tiniq va shaffofligi) yengil torishi;

– ko'zyoshlar (yomg'ir) inson tuyg'ulariga kuchli ta'sir kabi cheksiz tasavvurlar hosil qiladi. Kechinmaning bu qadar nozik ifodasi shoir lirikasida rang badiiy unsurining katta ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi. Nurboy Jabborov fikricha:

"Abdulla Oripov – mutafakkir shoir. Shuning uchun ham u boshqalarning yetti uxlab tushiga kirishi mahol bo'lgan original badiiy umumlashmalarga kela oladi. Jumladan, uningcha, ijodga azm etgan shoir ranglarni zohi ko'zi bilan emas, botin diydasi bilan idrok etmogi kerak. Chunki inson ko'zi suratkash anjomi bo'limgani kabi uning qulog'i ham oddiy some' emas – ular nozik mehroblarga tegishli. Ya'ni ijodkorming nazari hech kim ilg'amagan go'zallikni payqashi zarur"³.

Ranglar – ijodkor lirik kechinmalarini ifodalashda badiiy vosita. Shoir tabiat ranglari haqida so'z yuritadi, turli o'xshatish va tasvir usullarini qo'llaydi va she'r so'ngida o'zinib bu tasvirlardan kelib chiqib ijodiy niyatini ohorli ifodalaydi. Bu o'rinda rang-tasvir shoir uchun *vosita obraz sifatida xizmat qiladi*. Shoirning "Ruhiyat" sarlavhali she'rida ayni shu holatga duch kelamiz. Shoir tabiatdagi ajib go'zallik haqida so'z yuritadi. Olis Yaponiyada tun cho'kishini, dengizlarning tin olishini niyoyatda go'zal holatda tasvirlaydi: *Qaydadir tolib, tin olar dengiz, Yam-yashil qirfarga cho'ka boshlar tun. Sokin havo uzra taralar unsiz – Yapon ohanglari mahzun va uzun.*

Ayni shu sokinlik, xotirjamlik shoir ruhiyatiga ham singmoqda. U tabiat bilan o'zini uyg'unlikda his qilar ekan, go'yoki bu holat, bu manzaralar unga niyoyatda tanish, qadrdon ko'rinoqda. Shu bois ham shoir xuddi qachonlardir o'zini yapon bo'lib yashagandek his qilmoqda:

*Yomg'ir yog'a boshlar – nomsiz bir armon,
Ruhimga mo'ralar o'zga bir dunyo.
Ular bari tanish... Balki bir zamон
Men ham Yapon bo'lib yashadimmi yo.*

Ko'rinih turibdiki, shoir tabiat tasviri orqali o'z ruhiy olamini, lirik tuyg'ularini poetik svuratlangirgan. Tabiatning sokin holati shoir ruhiyatidagi sokinlikni o'zida aks ettirgan. Abdulla Oripov tabiat tasvirini ifodalashda niyoyatda betakror so'zlarini tanlaydi, uning so'z tanlash mahoratiga tan bermaslikning iloji yo'q. Bu so'zlar, o'z navbatida, she'lda obrazli tasvir mukammalligini ta'minlagan. Matyoqub Qo'shjonov va Suvon Meli ayni holatni mana bu tarzda izohlagan: "Obrazlilik Abdulla Oripovni abdityotining birinchi elementi – til xususida o'yashga majbur qiladi. U so'zlarga jilo bera oladi. Uning asarlarida bizga ma'lum so'zlar yangicha ma'no kasb etgandek bo'ladi. Shu bilan barobar, o'zbek tilining boyligi haqida ham qayg'uradi. Ba'zan fikrlarini betakror so'zlar bilan ifodalay oladi. Buning uchun u o'zbek tilining boyliklariдан unumli foydalanadi".⁴

"Italiya daftari" dan o'ren o'lgan "Manzaralar" she'rida ham ayni shu holatga duch kelamiz. Ijodkor obrazlilikni yaratishida tabiat tasviri va undagi ranglardan mohirona foydalana-di. "Manzaralar" she'rini o'qir ekanmiz, hatto so'zlamning ham rangini ko'rgandek, anglagandek bo'lamiciz: *Qalandar, mana bu o'mronlarga boq, Insonning xayoli chigaldir. Bir boqsang go'yoki zangori bayroq, Bir boqsang so'zana yanglig' tugaldir.*

Insonning xayollari kabi chigal o'monning zangori bayroqqa o'xshatilishi kishining hayratini oshirsa, keyingi misrada o'monning so'zanaga qiyos etilishi hayratni yana bir karra oshiradi. So'zanani ko'z oldimizga keltiradigan bo'lisk, undagi rang-baranglik, kashtalarining turlicha shakkllari xayolimizga keladi. Abdulla Oripovning aynan o'monni so'zanaga qiyos etishi orqali unda shoirona nigoarning, xayolot dunyosining niyoyatda kengligini va betakrorligini anglaymiz.

Shoir o'zini tabiat bilan bog'liq holda tasavvur etadi. Undagi ranglar shoir ruhiyatining ifodasi sifatida xizmat qiladi. Jumladan, shoirning "Texas osmoni" she'rida tabiat orqali insonning, nafaqat insonning, balki butun insoniyatning holatlari aks ettiriladi: *Texas osmonining yo'qdir qiyosi, Shu qadar moviydir, shu qadar toza. Go'yo Amriqoning ishchan quyoshi, Artib chiqqanidek oynani rosa.*

Tahlil

Texasning moviy osmoni shoiring e'tiborini tortadi. Osmon shu qadar musaffo, tozaki, go'yo Amerikaning ishchan quyoshi osmonni yarqiratib artib chiqqandek. Ammu bu holat uzoqqa cho'zilmaydi:

*Zum o'tmay osmonga ataylab ummon,
Irkit bulutlarni yuborar sochib.
Texas osmonida shundoq jarayon,
Aslo ketolmaysan sen bundan qochib.*

Bir lahzada osmonning holati o'zgarib, uni qora va kir bulutlar egallab oldi. Garchi shoirga yoqib turgan osmon holati o'zgarsa-da, u bu holatga e'tiroz bildirmaydi. Chunki bu – tabiat qonuni. Undan qochib qutilishning imkonи yo'q. Bir

qaraganda, oddiy tabiat hodisisi yoritilgandek tuyulgan bu satrlarda chuqr falsafiy mazmun – hayotning oq va qora ranglar zamiriga qurilgani ifodalangan. Hayotdagi holat ham ayni osmondagи kabi o'zgaruvchan. Insонning sozin, farovon va oppoq ranglardan iborat hayoti bir lahzada mashhaqqatl, qora kunlarga do'nrog'i mumkin. Hech bir insонning umri bir tekis, farovon kechmagani kabi faqat azob-uqbatalardan iborat emas. She'r ana shunday chuqr falsafiy mushohadaga asoslangan.

Xulosa qilib aytganda, Abdulla Oripov lirik asarlari ko'ngil va hayot aksidir. Shoir she'rlerida rang va ohang uyg'unligi asosida beqiyos falsafiy tafakkur ifodalانади. Bu ayni hayot falsafasidir. Yillar o'tgани sayin shoir she'rlerining qimmati to-bora oshib borayotganiga sabab ham shunda.

¹Хализев В.Е. Теория литературы. – Москва: Высшая школа, 1999. – С. 200–201.

²Ashurova G. Abdulla Oripov she'riyatida an'ana va badiiy mahorat (obraz, g'oya va tasvir). Filol. fan. nomzodi diss... – Toshkent, 2008.

³Jabborov N. Zamon, mezon, she'riyat. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMU, 2015. 29–30-betlar.

⁴Qo'shjonov M., Meli Suvon. Abdulla Oripov. – Toshkent, 2000. 44-bet.

Mohigul FOZIROVA,

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek
tili va adabiyyoti universiteti mustaqil tadqiqotchisi,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti o'qituvchisi*

ADABIY – NAZARIY KOMPETENSIYALAR XUSUSIDA

Adabiyyot fani bo'yicha 2017-yili tasdiqlangan "Malaka tabablari"ga ko'ra, mustaqil fikrashni, ijodiy qobiliyatni rivojlantirishga yo'naltirilgan bugungi kun adabiyyot o'qitish metodikasi o'quvchilarida ikki xil kompetensiyani shakllantirishga qaratilmog'i lozim: 1) *adabiyy-nutqiy kompetensiyalar*; 2) *badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi*. Adabiyy-nutqiy kompetensiyalar deganda nutqiy faoliyat turlari: *tinglab tushunish, og'zaki fikr bayon qilish, o'qish, yozma fikr bayon qilish* sa-nalgan. Ko'rindaniki, adabiyyot darslarida o'quvchilarning nutqini o'strish ham, asar tahibili ham yetakchi mavqedha turadi.

Adabiyyot o'qitish metodikasida ham, ona tili ta'limi metodikasida ham nutqiy faoliyat turlarini farqlab o'rgatish vazifasi o'qituvchi oldiga ilk bor qo'yildi. Nutqiy faoliyat turlari ustidagi ishlar ilgari faqat ikkinchi tilni o'qitish metodikasida yoritiladi, o'zga ti (chet tillar) darslarida nutqiy faoliyat turlari alohida yo'nalishlar sifatida tashkil etilar edi.

Nutqiy faoliyat turlari, odadta, to'rtga bo'lingan: *tinglab tushunish, so'zlash – gapirish, o'qish, yozma nutq*. Adabiyyot darslarida ularni o'zaro farqlab rivojlantirish zaruriyatni o'z-o'zidan paydo bo'lgan ekan, ushbu muammoni davr talabi, ijtimoiy buyurtma sifatida qabul qilishga to'g'ri keladi. Dastlab ushbu muammoning mazmun-mohiyatini anglashga harakat qilamiz.

Kompetensiya "adabiyy-nutqiy kompetensiyalar" deb nomlangan. Ushbu nomidagi nutqiy kompetensiyalar nutqiy faoliyat turlari bilan bog'liq ekanligi ma'lum darajada oydinlashdi. Lekin "adabiyy-nutqiy kompetensiyalar" ifodasida "adabiyyot" so'zi ham bor. Ayonki, adabiyyot darslarida nutq o'strish deyishning o'zi kifoya qilmagan. Nazarimizda, "adabiyy-nutqiy" tushunchasidagi *adabiyy* so'zidan bir necha xil ma'no ko'zda tutilgan bo'lishi mumkin: o'zbek adabiyy tiliga xos; adabiyyot-shunoslik tilini egallash; adabiyy asarlar asosidagi nutq, adabiyyot hamda nutq mutanosibligi va h.k. Biz tushunchaga shu ma'nolarning hammasini singdirsaq, mohiyatni to'g'ri oshib bergen bo'lamiz.

Metodist olim Qozoqboy Yo'ldosh va Muhamyo Yo'ldosh "Badiiy tahlil asosları" degan kitobida "badiiy nutq" ifodasini ishlataladi: "Badiiy nutq. Adabiyy obraz so'z qobig'idan tashqarida mavjud bo'la olmaydi. Tasvirlangan olamning barcha tafsillari faqat so'z shaklidagina badiiy borilqqa aylanadi. So'z, til badiiy adabiyyotni yuzaga keltiruvchi asosiy moya, undagi obrazlilikning moddiy tashuvchisidir². Bu o'rinda so'zning – leksikaning, umuman, tilning badiiy tasvirlarni yuzaga keltirishdagi ahamiyati ta'kidlanayapti.

Tilshunos olim E.Begmatov badiiy uslub va badiiy nutqni bir-birdan farqlaydi. Uning fikricha, "Badiiy nutq – badiiy uslubni vujudga keltiruvchi vosita. Nutqning obrazli-ifodaviyligi bi uslub turining muhim belgilardan biri hisoblanadi"³. U o'z talqinini davom ettirib, obrazli vositalarning uslubiy xosligi masalasiga to'xtaladi: "Obrazli vositalar faqat badiiy uslub uchun xos bo'lmay, nutqning boshqa formalarda ham bu vositalardan foydalaniлади. Shunga ko'ra obrazli vositalar badiiy uslubning o'ziga xos xususiyatlari sifatida emas, balki boshqa uslub turflariga nisbatan badiiy uslubda keng tarqalgan stilistik vositalar sifatida talqin qilinishi lozim"⁴.

Muallifning ta'kidlashicha, "Badiiy nutqning estetik ta'sirchanligini ta'minlovchi asosiy holatlar quyidagilar: a) nutqda so'zlarining o'z o'mida bo'lishi va fikrni obrazli ifoda etishi; b) nutqda uslubiy vositalarning maqsadga mos qo'llanishi"⁵.

Adabiyyot darslarida adabiyy-nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish deganda, albatta, badiiy asar asosida ish olib borilishi nazarda tutiladi. Badiiy asar esa badiiy uslub bilan bog'lanadi. Agar chet til darslarida nutqiy faoliyat turlari – o'qib eshitirilgan matn yoki o'rganilayotgan tilda so'zlangan nutq mazmunini tinglab tushunish, matnni o'qib mazmunini tushunish, o'rganilayotgan tilda gapirishni va yozishni o'rgatish vazifalari qo'yilsa, adabiyyot darslarida badiiy asar asosida nutqiy faoliyat turlarini farqlab nutq o'strish vazifalari ilgari suriladi. Bu o'rinda badiiy nutqni tinglab tushunish (estetik zavq oshish), badiiy asarni o'qish jarayonini badiiy nutqqa yaqin-